XALQ DEPUTATLARI BUXORO VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 18-yanvar VII-5-1-2-0-K/25 Buxoro viloyati

Shofirkon tumani Bobur nomli mahalla fuqarolar yigʻini hududida joylashgan “Qulhovli” aholi punktini “Yuqori Koʻlhovli” nomiga oʻzgartirish toʻgʻrisida

“Geografik obyektlarning nomlari toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining 9-moddasi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasinig 2024-yil 3-dekabrdagi 05-19-01-5601-sonli xulosasi va Shofirkon tumani hokimligining Bobur nomli mahalla fuqarolar yigʻini hududida joylashgan “Qulhovli” aholi punktini “Yuqori Koʻlhovli” nomiga oʻzgartirish toʻgʻrisidagi 2024-yil 14-dekabrdagi 01-12/3401-sonli taklifini koʻrib chiqib, xalq deputatlari viloyat Kengashi

Q A R O R Q I L D I:

1. Shofirkon tumani hokimligining Bobur nomli mahalla fuqarolar yigʻini hududida joylashgan “Qulhovli” aholi punktini “Yuqori Koʻlhovli” nomiga oʻzgartirish toʻgʻrisidagi taklifi maʼqullansin.

2. Shofirkon tumani hokimligi (A.Fayzilloyev), viloyat statistika boshqarmasi (U.Jumanazarov)ga tegishli davlat roʻyxatidan oʻtkazish idoralari bilan birgalikda mazkur qarordan kelib chiqib hisobotlarga belgilangan tartibda oʻzgartirishlar kiritish topshirilsin.

3. Viloyat hokimligi axborot xizmati (O.Joʻrayev)ga mazkur qarorni “Buxoronoma” va “Buxarskiy vestnik” gazetalarida hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida eʼlon qilinishini taʼminlash topshirilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi raisi Z.Tuyeva zimmasiga yuklansin.

5. Qaror rasmiy eʼlon qilingan kundan eʼtiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



ASHUROV JAMOL
RAJABBOYEVICH